

**“O‘ZBEKINVEST” EISK” AJ Kuzatuv
kengashining 2025-yil 24-sentyabrdagi
53-sonli bayonnomasi bilan
TASDIQLANGAN**

**“O‘ZBEKINVEST EKSPORT IMPORT SUG‘URTA KOMPANIYASI”
AKSIYADORLIK JAMIYATI**

**“O‘ZBEKINVEST EISK” AJDA ALOQA KANALLARI ORQALI KORRUPSIYAVIY XATTI-
HARAKATLAR TO‘G‘RISIDA KELIB TUSHGAN XABARLARNI QABUL QILISH VA KO‘RIB
CHIQISH REGLAMENTI**

2025 y. “24” sentyabr

Kod: RD-GK 40-04

Toshkent sh.

 UZBEKINVEST sug'urta kompaniyasi GK 40	"O'ZBEKINVEST EISK" AJDA ALOQA KANALLARI ORQALI KORRUPSIYAVIY XATTI-HARAKATLAR TO'G'RSIDA KELIB TUSHGAN XABARLARNI QABUL QILISH VA KO'RIB CHIQISH REGLAMENTI	RD-GK 40-04 14 dan 2 varaq 24.09.2025 y.
---	---	---

TASDIQLAYMAN

"O'zbekinvest EISK"

Aksiyadorlik Jamiyati

Bosh direktori

R. Azimov



"O'ZBEKINVEST EISK" AJda Aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish REGLAMENTI

1-Bo'lim. Umumiy qoidalar

1.1. Aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish REGLAMENTI (keyingi o'rinlarda – REGLAMENT) – bu "O'zbekinvest EISK" AJ (keyingi o'rinlarda – "Jamiyat" deb yuritiladi) ichki hujjati bo'lib, asosiy tushunchalarni, xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish REGLAMENTini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonunga muvofiq arizalarni ko'rib chiqish tartibiini belgilaydi.

1.2. Ushbu REGLAMENTning vazifalari:

- Jamiyat xodimlarini va uchinchi tomonlarni Jamiyat bilan aloqa qilish mumkin bo'lgan kanallari to'g'risida xabardor qilish;
- Kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ular bo'yicha ishlash;
- Jamiyat, shu'ba korxonalar va hududiy filiallarida huquqbuzarliklarning, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar samaradorligini oshirish.

Jamiyat, shu'ba korxonalar va hududiy filiallariga aloqa kanallari va ularning faoliyati, xodimlariga o'quv mashg'ulotlari va instruktajar, maxsus stendlar hamda elektron pochta orqali va boshqa yo'llar bilan yetkaziladi.

Aloqa kanallari faoliyati to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar Jamiyatning rasmiy veb-saytida ham aks ettiriladi.

2-Bo'lim. Qo'llash doirasi

2.1. Jamiyatning barcha tarkibiy bo'linmalari, hududiy filiallari va ixtisoslashtirilgan shu'ba korxonalari tomonidan ushbu REGLAMENT talablariga rioya etilishi shart.

(Several blue ink signatures are present at the bottom of the page, including one that appears to be 'R. Azimov' and others with initials.)

 UZBEKINVEST sug'irta kompaniyasi GK 40	“O‘ZBEKINVEST EISK” AJDA ALOQA KANALLARI ORQALI KORRUPSIYAVIY XATTI-HARAKATLAR TO‘G‘RISIDA KELIB TUSHGAN XABARLARNI QABUL QILISH VA KO‘RIB CHIQISH REGLAMENTI	RD-GK 40-04 14 dan 3 varaq 24.09.2025 y.

3-Bo‘lim. Asosiy tushunchalar

Arizachi – aloqa kanallari orqali Jamiyatga murojaat qilgan har qanday jismoniy va/yoki yuridik shaxs, shu jumladan Jamiyat xodimlari;

Jamiyat mansabdor shaxsi:

Jamiyat va uning filiallari va shu‘ba korxonalarida boshqaruv va qaror qabul qilish huquqini beruvchi lavozimni egallagan har qanday shaxs.

Manfaatlar to‘qnashuvi – xodimning shaxsiy manfaatlari bilan Jamiyatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik paydo bo‘lishiga olib kelishi yoki yuzaga kelishiga olib keluvchi, xodimning shaxsiy manfaati (to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita) ta’sir qiladigan yoki u tomonidan rasmiy yoki xizmat vazifalarini to‘g‘ri bajarilishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan holat.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiyaga qarshi qonunchilikka muvofiq javobgarlik ko‘zda tutilgan korrupsiya belgilari bo‘lgan harakat.

Korrupsiyaviy harakatlar:

- noqonuniy imtiyozlarni davlat mansabdor shaxsiga (pora berish, pora olish), tijorat tashkiloti vakiliga (tijorat porasi) yoki boshqa shaxsiga uning harakatlariga ta’sir o‘tkazish (harakatsizlikni ta’minlash) va uni rasmiy vazifalarini noo‘rin tarzda bajarishga undash uchun taklif etish, va‘da, ruxsat berish, cheklash, Jamiyat uchun noo‘rin ustunlikni, shu jumladan tijorat foydasini olish;

- Rasmiyatchilikni soddalashtirish uchun to‘lovlarni amalga oshirish;

- o‘z xizmat mavqeidan noqonuniy foydalanish, shuningdek mansab vakolatlaridan noo‘rin foydalanish, vakolatlarini suiste‘mol qilish, shuningdek, xodim tomonidan o‘z xizmat mavqeidan Jamiyatning qonuniy manfaatlariga zid ravishda noqonuniy foydalanish maqsadida har qanday shaxslardan noqonuniy imtiyozlarni talab qilish, talab qilib olish yoki olish uchun rozilik berish, shu jumladan o‘zi yoki uchinchi shaxslar uchun noqonuniy imtiyozlarni olish maqsadidagi harakatlar;

- poraxo‘rlik yoki tijorat pora olishda vositachilik, shu jumladan, oluvchiga noqonuniy mablag‘ berish yoki oluvchi yoki pul o‘tkazuvchiga ular o‘rtasida noqonuniy foyda olish va berish to‘g‘risida kelishuvga erishish yoki uni amalga oshirishda yordam berish;

- xodimlarning korrupsiya belgilarini o‘z ichiga olgan yoki uning sodir bo‘lishiga hissa qo‘shadigan, shu jumladan manfaatlar to‘qnashuvi aks etgan boshqa harakatlari/harakatsizligi;

Korrupsiya – shaxs tomonidan o‘zining shaxsiy manfaatlari yoki boshqa shaxslarning manfaatlari yo‘lida moddiy yoki nomoddiy manfaatlar olish maqsadida o‘z rasmiy yoki xizmat mavqeidan noqonuniy foydalanganlik, shuningdek bunday imtiyozlarni noqonuniy taqdim etganlik.

 UZBEKINVEST sug'urta kompaniyasi GK 40	“O‘ZBEKINVEST EISK” AJDA ALOQA KANALLARI ORQALI KORRUPSIYAVIY XATTI-HARAKATLAR TO‘G‘RISIDA KELIB TUSHGAN XABARLARNI QABUL QILISH VA KO‘RIB CHIQISH REGLAMENTI	RD-GK 40-04 14 dan 4 varaq 24.09.2025 y.

Noqonuniy foyda – pul mablag‘lari yoki boshqa moddiy afzalliklar, imtiyozlar, xizmatlar, nomoddiy aktivlar, qonuniy asoslarsiz va‘da qilingan, taklif qilingan, taqdim etilgan yoki olingan boshqa har qanday moddiy yoki nomoddiy foyda.

3.1. Amaldagi, ammo ushbu REGLAMENTda belgilanmagan atamalar Jamiyatning boshqa ichki hujjatlarida va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida qo‘llanilgan ma’noda foydalaniladi.

4-Bo‘lim. Normativ havolalar

4.1. O‘zbekiston Respublikasining 11.09.2017 yildagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-445-son Qonuni;

4.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2021-yildagi PQ-5177-sonli “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori;

4.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.01.2022-yildagi PQ-81-sonli “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori;

4.4. “O‘zbekinvest EISK” AJ Ustavi;

4.5. Ish yuritish bo‘yicha Yo‘riqnoma – RD-05;

4.6. “O‘zbekinvest EISK” AJ Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va xavfsizlikni ta‘minlash departamenti Nizomi – RD-GK-40-01.

Ushbu REGLAMENT kuchga kirishi bilan 2024yil 28-maydagi “O‘ZBEKINVEST EISK” AJda Qonun buzilishlar to‘g‘risida xabar berish Tartibi” o‘z kuchini yo‘qotadi.

5-Bo‘lim. Jamiyat bilan aloqa kanallari

5.1 Jismoniy va yuridik shaxslar o‘zlarini qiziqtirgan savollar bo‘yicha Jamiyatga murojaat qilishlari, shuningdek quyidagi aloqa kanallari orqali Jamiyatda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklar, shu jumladan odob-axloq qoidalarining buzilishi va korrupsiya to‘g‘risida xabar berishlari mumkin:

- “Ishonch telefoniga” og‘zaki murojaat qilish (+998 (78) 120-03-61 raqami bo‘yicha) [ish kunlari soat 9:00 dan 18:00 gacha operatorlar bilan qo‘ng‘iroqlarni qabul qilish vaqti.];

- Jamiyat Kotibiyati orqali yozma so‘rov yuborish;

- Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va xavfsizlikni ta‘minlash departamenti elektron pochta manzili **antikorrupsiya@uzbekinvest.uz**;

- Jamiyatning Telegram kanali orqali xabar yuborish;

- Jamiyatning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl orqali;

- Boshqa aloqa kanallari.

 UZBEKINVEST sug'urta kompaniyasi GK 40	"O'ZBEKINVEST EISK" AJDA ALOQA KANALLARI ORQALI KORRUPSIYAVIY XATTI-HARAKATLAR TO'G'RISIDA KELIB TUSHGAN XABARLARNI QABUL QILISH VA KO'RIB CHIQISH REGLAMENTI	RD-GK 40-04 14 dan 5 varaq 24.09.2025 y.

6-Bo'lim. Mas'uliyat.

6.1. Ushbu REGLAMENT talablarini bajarish uchun Jamiyatning tarkibiy bo'linmalari, hududiy filiallari va ixtisoslashtirilgan shu'ba korxonalari rahbarlari javobgar bo'ladi.

6.2. Ushbu REGLAMENTni aktallashtirish hamda aloqa kanallari to'g'risidagi axborotni rasmiy veb-sayt, va ijtimoiy tarmoqdagi sahifa va kanallariga, shuningdek, Jamiyat binosida joylashtiriladigan tematik plakatlar va hokazolarda aks ettirish uchun Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat va xavfsizlikni ta'minlash departamenti Bosh menejeri javobgardir.

7-Bo'lim. Jamiyatning aloqa kanallari tamoyillari

7.1. Jamiyatning aloqa kanallarini tashkil etish va faoliyatning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

murojaat etuvchilarning fuqarolik huquqlari va erkinliklarini himoya qilish - Jamiyat jismoniy va yuridik shaxslarning fuqarolik huquqlari va erkinliklariga tajovuz qilishning yo'l qo'yilmasligini tan oladi va ularga bog'liq holda murojaat etuvchilarning huquqlarini tiklash bo'yicha choralar ko'radi;

maxfiylik va xavfsizlik - xabarni qabul qilish, xabar bo'yicha ishlash va ko'rib chiqish uchun javobgar bo'lgan xodimlar ushbu REGLAMENTda belgilangan REGLAMENTni buzgan holda uning mazmunini Jamiyatning boshqa xodimlariga va uchinchi tomonga yetkazishga (oshkor qilishga) haqli emas;

qonuniylilik - Jamiyatning aloqa kanallariga qabul qilingan xabarlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish, ular bo'yicha ishlash va ko'rib chiqish, ushbu REGLAMENT talablariga muvofiq amalga oshiriladi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga zid kelmaydi;

barcha qabul qilingan xabarlarni o'z vaqtida va ob'ektiv o'rganish - Jamiyat, kelib tushgan barcha xabarlarni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu REGLAMENTda belgilangan muddatlarda to'liq har tomonlama, ob'ektiv va o'z vaqtida ko'rib chiqilishini kafolatlaydi;

ariza beruvchini javobgarlikka tortmaslik - Jamiyatning boshqa xodimlari yoki uchinchi tomonlar tomonidan gumon qilingan huquqbuzarliklar to'g'risidagi gumonlari to'g'risidagi ma'lumotlarni vijdonan bildirgan Jamiyat xodimi, xabarning xususiyatidan qat'i nazar, Jamiyat tomonidan biron bir javobgarlikka tortilishi mumkin emas;

arizachi bilan qayta aloqa (imkoni bo'lsa) - agar xabar anonim bo'lsa, uni ko'rib chiqish natijalari va holati uni ko'rib chiqayotgan Jamiyatning mas'ul xodimi tomonidan murojaat etuvchiga yetkazilishi kerak;

choralar ko'rilishini majburiyligi - korrupsiya yoki boshqa huquqbuzarlik faktlari tasdiqlangan taqdirda, Jamiyat aybdorlarni javobgarlikka tortish maqsadida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

8-Bo'lim. Aloqa kanallari orqali qabul qilingan xabarlarni qabul qilish, qayta ishlash va ko'rib chiqish tartibi

 UZBEKINVEST tug'urta kompaniyasi	"O'ZBEKINVEST EISK" AJDA ALOQA KANALLARI ORQALI KORRUPSIYAVIY XATTI-HARAKATLAR TO'G'RSIDA KELIB TUSHGAN XABARLARNI QABUL QILISH VA KO'RIB CHIQISH REGLAMENTI	RD-GK 40-04
		14 dan 6 varaq 24.09.2025 y.

8.1. Kelib tushgan xabarlarni qabul qilish, ular bo'yicha ishlash va ko'rib chiqish uchun umumiy talablar

8.1.1. Jamiyatga kelib tushgan barcha xabarlarga Kotibiyat tomonidan xabarni ko'rib chiqish uchun tegishli toifa va tezkorlik turi (yuqori / o'rta / past) belgilanadi.

Xabar toifalari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- mehnatni muhofaza qilish, sanoat va ekologik xavfsizlik qoidalarini buzilishi mumkinligi to'g'risidagi xabarlar;
- korrupsiya alomatlari va manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabarlar;
- odob-axloq qoidalarini buzilishi to'g'risidagi xabarlar;
- ishga joylashish bilan bog'liq muammolar;
- ish haqi / moddiy yordamni to'lash masalalariga oid xabarlar;
- tijorat takliflari;
- boshqa toifalar.

8.1.2. Xabarni ko'rib chiqish uchun tezkorlik (yuqori / o'rta / past) turi Kotibiyatning mas'ul xodimi tomonidan quyidagi tartibda belgilanadi:

Yuqori darajadagi zudlik bilan ko'rib chiqiladigan xabarlar to'g'ridan-to'g'ri ma'lum bir vaqtda yuzaga keladigan, salbiy oqibatlarini kamaytirish yoki oldini olish mumkin bo'lgan holatlar to'g'risidagi xabarlarga mansub bo'ladi. Bunday holatlar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- Jamiyat xodimlarining yoki boshqa jismoniy shaxslarning hayoti va sog'lig'iga tahdid mavjudligi;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining buzilishi (shu jumladan korrupsiya va firibgarlik harakatlari);
- Jamiyatning ishlab chiqarish faoliyati oqibatida atrof-muhitga yetkazilgan zarar;
- Jamiyat xodimlarining o'z vazifalarini bajarayotganda alkogolli yoki giyohvandlik moddalari ta'sirida ekanligi aniqlanganligi to'g'risida xabarlar;
- Jamiyatning obro'siga zarar yetkazadigan ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar.

O'rtacha darajada ko'rib chiqiladigan xabarlar allaqachon sodir bo'lgan, Jamiyatning ichki hujjatlari va tartib qoidalarini qo'pol ravishda buzilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan xabarlarga xosdir. Bunday xabarlar, yuqori darajadagi zudlik bilan ko'rib chiqiladigan yuqorida tavsiflangan holatlar hamda quyidagi holatlar bo'lishi mumkin:

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (potensial) manfaatlar to'qnashuvi;

- Jamiyatga qarshi da'vo berish istagini o'z ichiga olgan xabarlar;
- ish haqini berish haqidagi savollar;
- fuqarolarning/mijozlarning/tadbirkorlik sub'ektlarining shikoyatlari;
- odob-axloq qoidalarini buzilishlari va kamsitishlar to'g'risidagi xabarlar.

UZBEKINVEST sug'urta kompaniyasi	"O'ZBEKINVEST EISK" AJDA ALOQA KANALLARI ORQALI KORRUPSIYAVIY XATTI-HARAKATLAR TO'G'RISIDA KELIB TUSHGAN XABARLARNI QABUL QILISH VA KO'RIB CHIQISH REGLAMENTI	RD-GK 40-04 14 dan 7 varaq 24.09.2025 y.
GK 40		

Past darajadagi ko'rib chiqiladigan xabarlar Jamiyat faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq bo'lmagan xabarlarga xosdir. Bunday holatlar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- tijorat takliflari;
- ish bilan ta'minlash masalalari;
- boshqa yo'nalishlar.

8.1.3. Jamiyat tomonidan murojaatlarni ko'rib chiqish uchun murojaat kelib tushgan kundan boshlab 15 (o'n besh) kundan 30 (o'ttiz) kalendar kungacha muddatlarni belgilab qo'yiladi.

Agar qabul qilingan xabarlarga binoan qo'shimcha tekshirish/o'rganish zarur bo'lsa, belgilangan muddatning oshishiga olib keladigan qo'shimcha hujjatlarni talab qilish kerak bo'lsa, u holda xabarni ko'rib chiqishga mas'ul etib tayinlangan boshqarma/bo'lim xodimi bundan xabardor bo'lishi bilanoq, bu haqda murojaat etuvchiga va jismoniy va yuridik shaxslarning shikoyatlari bilan ishlash bo'limiga xabar berishi shart.

8.1.4. Jamiyat, boshqa jamiyat xodimlari tomonidan korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklar sodir etilganligi (yoki korrupsiyani amalga oshirganlikda gumon qilinganligi) to'g'risida vijdonan xabar bergan xodimlarga har qanday javobgarliklarni qo'llamaslik va ta'qiblardan himoya qilishni kafolatlaydi.

8.1.5. Qabul qilingan xabarlarni ko'rib chiqish jarayonida Jamiyatning mas'ul xodimlari nafaqat huquqbuzarliklarni kelib chiqishiga sabab bo'lgan faktlarni tahlil qiladilar, balki kelajakda ularning oldini olish choralari ko'radilar.

8.1.6. Qabul qilingan xabarlarning reestri (ushbu REGLAMENTning 1-ilovasi shaklida yuritiladi), shuningdek tegishli materiallar, hujjatlar va qabul qilingan xabarlar to'g'risidagi ma'lumotlar (shu jumladan, qabul qilingan qarorlar va arizachilarga yuborilgan javoblar) Jamiyatning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddatlarda (10 yildan kam bo'lmagan) saqlanishi kerak.

8.2. Jamiyat Kotibiyati, Jamiyatning ijtimoiy tarmoqlardagi va Jamiyat veb-saytidagi shakl orqali va "ishonch telefoni" orqali kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ular bo'yicha ishlash REGLAMENTi.

8.2.1. Kotibiyat xodimlari ushbu REGLAMENTning 5.1-bandida ko'rsatilgan aloqa kanallari orqali qabul qilingan xabarlarni qabul qiladilar va ular bo'yicha ishlaydilar, ariza beruvchilarning to'g'ridan-to'g'ri Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va xavfsizlikni ta'minlash departamentiga yuborilgan xabarlari bundan mustasno.

8.2.2. Kotibiyatning mas'ul xodimlari murojaat etuvchilarga xabarning qabul qilinishi va uni ko'rib chiqish tartibining boshlanishi to'g'risida xabarnoma yuborishlari shart.

8.2.3. Murojaatlarni "ishonch telefoni" orqali qabul qiladigan Kotibiyat xodimi murojaat etuvchidan quyidagi ma'lumotlarni aniqlab olishi kerak:

 UZBEKINVEST sug'urta kompaniyasi	"O'ZBEKINVEST EISK" AJDA ALOQA KANALLARI ORQALI KORRUPSIYAVIY XATTI-HARAKATLAR TO'G'RSIDA KELIB TUSHGAN XABARLARNI QABUL QILISH VA KO'RIB CHIQISH REGLAMENTI	RD-GK 40-04 14 dan 8 varaq 24.09.2025 y.
GK 40		

- Ariza beruvchining to'liq ismi sharifi (F.I.Sh) va aloqa ma'lumotlari (u bilan qayta aloqa qilish uchun);

- ariza beruvchi ishlayotgan tashkilot nomi va lavozimi (agar u yuridik shaxs manfaatlarini himoya qilsa), murojaat etuvchi ishlaydigan Jamiyatning bo'limi/bo'linmasi nomi (agar u Jamiyat xodimi bo'lsa);

- qonun buzilish sodir bo'lgan, sodir bo'layotgan yoki sodir bo'ladigan vaqt davri va uning davriyligi (bir martalik yoki takrorlanadigan);

- qonun buzilishning qisqacha tavsifi (shu jumladan, ma'lumotlar, aniq muhim faktlar va holatlar, muhim tafsilotlar, mumkin bo'lgan sabablar va boshqalar);

- yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (potensial) aybdor va/yoki aloqador shaxslarning lavozimi va F.I.Sh;

- qonun buzilishi to'g'risida bilishi va xabar berilgan ma'lumotlarni tasdiqlashi va/yoki to'ldirishi mumkin bo'lgan Jamiyat xodimlarining ismi sharifi va lavozimi;

- boshqa ma'lumotlar.

8.2.4. Agar Jamiyatning aloqa kanallariga murojaat qilgan shaxs o'z xabarini tasdiqlash uchun taqdim qilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha materiallarga ega bo'lsa, masalan, fotografik materiallar, hujjatlar, audio va video yozuvlar bo'lsa, u holda Kotibiyatning mas'ul xodimi Jamiyatning materiallarni taqdim etish uchun mavjud kanallarini ko'rsatadi (masalan, Telegram kanali orqali yoki antikorrupsiya@uzbekinvest.uz elektron pochta orqali), ariza beruvchining materiallarni qaysi vaqt ichida taqdim qilishi mumkinligini so'raydi, taqdim etilgan ma'lumotlarning maxfiyligi to'g'risida xabar beradi.

Arizachi o'z xabaridan tashqari ko'rsatilgan qo'shimcha materiallarni taqdim qilganida, ushbu xabarni olgan Kotibiyat xodimi olingan materiallarni (ariza beruvchi ma'lumot taqdim qilishni tanlagan elektron pochta yoki Jamiyat bilan boshqa aloqa kanalidan tushgan materiallarni) xabarda ko'rsatilgan yoki joriy ish kuni tugaganidan kechiktirmay yuklab oladi. Zarur hollarda, Kotibiyatning mas'ul xodimi murojaat etuvchiga Jamiyat tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilishini kutayotganligini eslatishi mumkin.

8.2.5. Murojaatlar bilan ishlash bo'yicha Kotibiyatning mas'ul xodimi qabul qilingan xabarlarni xabarlar olingan yoki tegishli hujjatlar olingan paytdan boshlab ikki soat ichida tegishli toifalar va dolzarblik turlarini belgilaydi, qabul qilingan xabarlarni ro'yxatga olish jurnalida (ushbu REGLAMENTga 1-ilova shaklida), shuningdek, «ijro.uz» tizimida barcha xabarlarni ro'yxatdan o'tkazadi, olingan materiallarni (tasdiqlovchi hujjatlarni) biriktiradi.

Qabul qilingan ma'lumotlarning yetarli darajada maxfiyligini ta'minlash uchun qabul qilingan xabarlar reestriga kirish huquqiga faqat Kotibiyatning mas'ul xodimi, Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat va xavfsizlikni ta'minlash departamenti va Jamiyatning Bosh direktori egadirlar.

8.2.6. Kotibiyatning mas'ul xodimi qabul qilingan xabarlarning reestri to'g'risida bir ish kunida (hafta oxiri yoki bayram kunlari kelib tushgan bo'lsa, ikki yoki undan ko'p kun ichida)

 UZBEKINVEST sug'urta kompaniyasi	"O'ZBEKINVEST EISK" AJDA ALOQA KANALLARI ORQALI KORRUPSIYAVIY XATTI-HARAKATLAR TO'G'RSIDA KELIB TUSHGAN XABARLARNI QABUL QILISH VA KO'RIB CHIQISH REGLAMENTI	RD-GK 40-04
GK 40		14 dan 9 varaq 24.09.2025 y.

xabarlarni qabul qilish kunidan keyingi ish kunida soat 12:00 gacha (avtojavob beruvchi rejim tomonidan qabul qilingan qo'ng'iroqlarni ish vaqtidan tashqari vaqtda ular bo'yicha ishlash maqsadida) Bosh direktorga axborot beradi. (jismoniy yoki yuridik shaxslardan noto'g'ri qabul qilingan xabarlar, reklama, spam va hk. larni o'z ichiga olgan xabarlardan tashqari)

Yuqori darajadagi zudlik bilan ko'rib chiqiladigan turga mansub xabarlar, ular qabul qilingan ish kuni davomida Jamiyat bosh direktoriga xabar qilinishi kerak.

Reestr, mazkur REGLAMENTning 1-ilovasiga muvofiq, qog'oz shaklida yoki elektron shaklda taqdim etiladi. Bosh direktor, xabarlarda keltirilgan ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun barcha xabarlarning nusxalari reestrda seriya raqamga muvofiq biriktiriladi.

8.2.7. Bosh direktor har bir qabul qilingan xabarni ko'rib chiqish to'g'risida topshiriq beradi va ushbu xabar faoliyatiga tegishli bo'lgan Jamiyatning tarkibiy bo'linmasini ijtirochi etib tayinlaydi. Shu bilan birga, Jamiyat xodimlarini unga tegishli bo'lgan xabarni ko'rib chiqishi va tahlil qilishi va/yoki uni ko'rib chiqishda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan vaziyatda jalb qilish taqiqlanadi.

8.2.8. Korruptsiya alomatlar (shu jumladan potensial xabarlar) va manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq barcha xabarlar Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat va xavfsizlikni ta'minlash departamenti tomonidan ko'rib chiqiladi va xodimlar xabarlarda ko'rsatilgan tarkibiy bo'linmalarga ijtiro etish uchun yuborilishi mumkin emas.

8.2.9. Xabarni (xabarnomani) ko'rib chiqish uchun mas'ul etib tayinlangan Jamiyatning tarkibiy bo'linmasi rahbari ushbu REGLAMENTning 8.1.3-bandida belgilangan muddatlarda qabul qilingan xabarni ob'ektiv va to'liq tahlilini ta'minlaydi.

Agar qo'shimcha ma'lumot olish zarur bo'lsa, u yoki unga bo'ysungan mas'ul xodim murojaat etuvchidan uni so'raydi (agar qayta aloqa uchun kontakt mavjud bo'lsa).

8.2.10. Xabarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Jamiyatning tarkibiy bo'linmasining mas'ul rahbari o'z xabarini ko'rib chiqish natijalari to'g'risida ushbu REGLAMENTning 8.1.3-banda belgilangan muddatlarda murojaat etuvchini xabardor qiladi.

Ko'rib chiqish natijalari ko'rsatilgan elektron nusxasi tarkibiy bo'linmaning mas'ul rahbari tomonidan murojaatlarga javob berish bilan bir vaqtda Kotibiyatga yuboriladi.

8.2.11. Kotibiyatning mas'ul xodimi "ijro.uz" tizimi va qabul qilingan xabarlarni ro'yxatga olish kitobida ro'yxatdan o'tgan barcha murojaatlarning Jamiyatning tarkibiy bo'linmalari o'rtasida taqsimlanishini nazorat qiladi, shuningdek murojaatlarni ko'rib chiquvchilar va xabarnomalarni ko'rib chiqish natijalarini o'z vaqtida yuborilishini nazorat qiladi (anonim xabarlar bundan mustasno).

8.3. Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat va xavfsizlikni ta'minlash departamentiga qabul qilingan xabarlarni qayta ishlash tartibi .

8.3.1. Xabar qabul qilinganda, Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat va xavfsizlikni ta'minlash departamentining buyruq bilan murojaatlar bilan ishlashga mas'ul etib tayinlangan

 UZBEKINVEST sug'urta kompaniyasi	"O'ZBEKINVEST EISK" AJDA ALOQA KANALLARI ORQALI KORRUPSIYAVIY XATTI-HARAKATLAR TO'G'RSIDA KELIB TUSHGAN XABARLARNI QABUL QILISH VA KO'RIB CHIQISH REGLAMENTI	RD-GK 40-04
GK 40		14 dan 10 varaq 24.09.2025 y.

xodimi uni dolzarbligi bo'yicha tahlil qiladi, ya'ni qabul qilingan xabarda keltirilgan ma'lumotlarning Korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar va / yoki manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liqligini tekshiradi.

8.3.2. Agar Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat va xavfsizlikni ta'minlash departamenti xodimi ushbu xabarning ahamiyati yo'q degan xulosaga kelgan bo'lsa, u holda u 1 (bir) ish kuni ichida murojaatlarni ko'rib chiqish uchun Kotibiyatga yo'naltiradi. Kotibiyati qabul qilingan xabarni ushbu REGLAMENTning 8.2-qismida ko'rsatilgan tartibda qayta ishlaydi.

8.3.3. Agar xabar tegishli bo'lsa, unda Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat va xavfsizlikni ta'minlash departamenti:

— xabarning kelib tushganligi va uni ko'rib chiqish boshlanganligi to'g'risida Jamiyatning Bosh direktoriga huquqbuzarlikning mohiyatini ko'rsatgan holda elektron pochta orqali xabar/xizmat nomasi yuboradi (lekin uning shaxsiga oid ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash maqsadida ariza beruvchining to'liq ismi, aloqa ma'lumotlari va boshqa shaxsiy ma'lumotlari ko'rsatilmagan holda);

— Kotibiyatga 1-ilovadgi shaklga muvofiq reestrni to'ldirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni yuboradi (lekin uning shaxsiga oid ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash maqsadida ariza beruvchining ismi, aloqa ma'lumotlari va boshqa shaxsiy ma'lumotlari ko'rsatilmagan holda).

8.3.4. Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat va xavfsizlikni ta'minlash departamenti kelib tushgan xabarni har tomonlama tahlil qiladi, murojaat etuvchiga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qiladi, undan qo'shimcha ma'lumot va/yoki hujjatlarni so'raydi va agar asoslar mavjud bo'lsa, Jamiyat tomonidan xizmat tekshiruvini o'tkazish qoidalarida belgilangan tartibda xizmat tekshiruvini boshlaydi.

8.3.5. Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat va xavfsizlikni ta'minlash departamentiga kelib tushgan xabarlarni ko'rib chiqish prinsiplari va muddatlari ushbu 7 va 8.1-bo'limlarida ko'rsatilganlarga muvofiq bo'ladi.

8.3.6. Xabarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat va xavfsizlikni ta'minlash departamentining mas'ul xodimi arizachini ushbu REGLAMENTning 8.1.3-bandida belgilangan muddatlarda uning xabarini ko'rib chiqish natijalari va mohiyati to'g'risida xabardor qiladi. (agar ariza beruvchining aloqa ma'lumotlari mavjud bo'lsa).

Ko'rib chiqish natijalari ko'rsatilgan elektron nusxasi Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat va xavfsizlikni ta'minlash departamentining mas'ul xodimi tomonidan Kotibiyatga hamda murojaat etuvchiga javob bilan bir vaqtda yuboriladi.

9-Bo'lim. Hisobot berish

9.1. Kotibiyat qabul qilingan xabarlarning reestrini yuritadi (1-ilovaga muvofiq shaklda), shu asosda har oyda Bosh direktorga o'z vaqtida javob berilmagan yozma xabarlar to'g'risidagi har oylik yig'ma hisobotni quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan holda taqdim etadi:

— xabarni qabul qilish sanasi;

 UZBEKINVEST sug'urta kompaniyasi	"O'ZBEKINVEST EISK" AJDA ALOQA KANALLARI ORQALI KORRUPSIYAVIY XATTI-HARAKATLAR TO'G'RSIDA KELIB TUSHGAN XABARLARNI QABUL QILISH VA KO'RIB CHIQISH REGLAMENTI	RD-GK 40-04
GK 40		14 dan 11 varaq 24.09.2025 y.

— xabarlar toifalari;
 — xabarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar;

— xabarning o'z vaqtida ko'rib chiqilmaganligining sabablari.

9.2. Har chorakda Kotibiyat quyidagi statistik ma'lumotlar aks ettirilgan qabul qilingan xabarlar to'g'risidagi hisobotni shakllantiradi va Jamiyatning Bosh direktoriga yuboradi:

— ariza beruvchilar tomonidan tez-tez ishlatiladigan aloqa kanallari;
 — qabul qilingan xabarlarning toifalari va/yoki ariza beruvchilar tez-tez murojaat qiladigan masalalar;

— toifalar bo'yicha o'z vaqtida bajarilmagan xabarlar soni;
 — xabarlar bo'yicha ishlash muddatlari (har bir toifa bo'yicha o'rtacha vaqt);
 — tasdiqlangan faktlar soni (masalan, huquqbuzarliklar, shu jumladan, korrupsiya alomatlari va boshqalar to'g'risidagi shikoyatlar uchun);
 — boshqa statistik ma'lumotlar.

9.3. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va xavfsizlikni ta'minlash departamenti doimiy ravishda Kotibiyatdan istalgan davr uchun qabul qilingan xabarlar reestrini va qabul qilingan xabarlar haqidagi boshqa tegishli ma'lumotlarni so'rash huquqiga ega.

10-Bo'lim. Murojaatlar munosabati bilan ayon bo'lib qolgan ma'lumotlarning oshkor etilmasligi kafolatlari

10.1. Murojaatlarni ko'rib chiqishda jismoniy shaxslarning shaxsiy hayoti, yuridik shaxslarning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar ularning roziligisiz, shuningdek davlat sirini yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarning va, agar bu jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini kamsitadigan bo'lsa, boshqa axborotning Jamiyatning barcha tarkibiy bo'linmalari, hududiy filiallari va ixtisoslashtirilgan shu'ba korxonalari rahbarlari va xodimlari tomonidan oshkor etilishiga yo'l qo'yilmaydi.

10.2. Jismoniy va yuridik shaxs to'g'risidagi, murojaatga taalluqli bo'lmagan ma'lumotlarni aniqlashga yo'l qo'yilmaydi.

10.3. Jismoniy shaxsning iltimosiga ko'ra uning shaxsiga doir biron-bir ma'lumot oshkor etilmaydi.

11-Bo'lim. Jismoniy va yuridik shaxslar hamda Jamiyat xodimlarining murojaatlari munosabati bilan ular xavfsizligining kafolatlari

11.1. Jismoniy shaxsni, uning vakilini, ularning oila a'zolarini, yuridik shaxsni, uning vakilini va yuridik shaxs vakilining oila a'zolarini va Jamiyat xodimini, uning vakilini, ularning oila a'zolarini ular o'z huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish

12  UZBEKINVEST sug'urta kompaniyasi	"O'ZBEKINVEST EISK" AJDA ALOQA KANALLARI ORQALI KORRUPSIYAVIY XATTI-HARAKATLAR TO'G'RISIDA KELIB TUSHGAN XABARLARNI QABUL QILISH VA KO'RIB CHIQISH REGLAMENTI	RD-GK 40-04
		14 dan 12 varaq 24.09.2025 y.

GK 40

yoki himoya qilish maqsadida Jamiyatning barcha tarkibiy bo'linmalari, hududiy filiallari va ixtisoslashtirilgan shu'ba korxonalariga va ularning mansabdor shaxslariga murojaat etganligi, shuningdek murojaatlarda o'z fikrini bildirganligi va tanqid qilganligi munosabati bilan ta'qib etish man etiladi.

12-Bo'lim. Javobgarlik

12.1. Ushbu REGLAMENTga muvofiq xodimlardan va boshqa shaxslardan xabarlarni qabul qiluvchi Jamiyat xodimlari, ushbu REGLAMENT va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya qilishlari bo'yicha shaxsiy javobgarlikni o'z zimmlariga oladilar.

12.2. Shaxsiy manfaatlarni ko'zlash yoki boshqa g'arazli maqsadlarda o'z xabarlarida qasddan yolg'on xabarlar bergan yoki boshqalarga qasddan tuhmat qilgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi qonunlari va Jamiyatning ichki normativ hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

13  UZBEKINVEST sug'irta kompaniyasi	“O‘ZBEKINVEST EISK” AJDA QONUN BUZILISHLAR TO‘G‘RISIDA XABAR BERISH TARTIBI	RD-GK 40-04
		14 dan 13 varaq 24.05.2024 y.
GK 40		

1-ilova

Qabul qilingan xabarlarning reestri

T/r	Xabar ni qabul qilish sanasi va vaqti	Xabar toifasi	Xabarning ko‘rib chiqishning tezkorlik turi	Aloqak anali	Arizachining F.I.Sh., lavozimi, ish joyi va telefon raqami (agar yo‘q bo‘lsa, xabarning anonim ekanligini ko‘rsatib qo‘ying)	Xabarni olgan xodimni ng ismi	Qabul qilingan xabarda mavjud bo‘lgan muhim ma’lumotl ar	ijro.uz saytida murojaatni ro‘yxatdan o‘tkazish raqami, sanasi va vaqti	Xabarni ko‘rib chiqish uchun mas‘ul shaxsning ismi va lavozimi	Xabar, uning sanasi va raqami ko‘rib chiqilgandan so‘ng qabul qilingan qaror	Ariza beruvchiga fikir- mulohazalar ni xabar berish sanasi
1.											
2.											
3.											
4.											
5.											
6.											

 UZBEKINVEST sig'orta kompaniyasi	“O‘ZBEKINVEST EISK” AJDA QONUN BUZILISHLAR TO‘G‘RISIDA XABAR BERISH TARTIBI	RD-GK 40-04
		14 dan 14 varaq 24.05.2024 y.
GK 40		

Hujjat tekshirilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar

№	Kiritilgan sana	Uzaytirish/ Qayta ko‘rib chiqish/Bekor qilish	Yozuv egasining lavozimi	Imzo	F.I.Sh.